

5-bor o'tkazilayotgan KAGU "Kuma Kengo va Higashikava shahri" xalqaro dizayn tanlovi

Kirish:

Mahalliy hududlarning qiymati va salohiyati qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda, Daysetsuzan tog'laridan keladigan tabiiy yer osti suvi hamda go'zal landshaftga ega "Fotosurat madaniyatining poytaxti" sifatida tanilgan Hokkaydoning "Fotosuratlar shahri" — Higashikava shahrida, mintaqaga qarab binolarni loyihalashtiradigan me'mor, Kengo Kuma bilan hamkorlikda, me'morchilik va mebel orqali qulay turmush tarzini dunyoga targ'ib etishga qaratilgan yangi tashabbusni yo'lga qo'ymoqda.

Higashikava shahrida ko'p yillar davomida aynan mebel ishlab chiqarish markazi bo'lgan kichik bir shaharga xos bo'lgan tashabbuslar muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Bu loyiha shaharchadagi bolalarga g'amxo'rlik qilish uchun yaratilgan - "Sening o'rindig'ing" loyihasi bilan boshlangan. Boshlang'ich maktabda o'quvchilar yog'ochdan yasalgan maktab jihozlarida o'qishadi, o'rta maktabga o'tgach, esdalik sifatida uch yil davomida ishlatgan yog'och stullarini uylariga olib ketishadi. Ana shu tarzdagi uzluksiz tashabbuslar — mebel ishlab chiqaruvchi hududning o'ziga xos imkoniyatlaridan kelib chiqadi va endilikda kelajakni belgilovchi yosh avlodni tarbiyalash bosqichiga kirib bormoqda.

Hudud jozibasini erta bosqichlarda ilgari surgan, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, kelajak avlod ta'limiga kuchli e'tibor qaratish orqali hududni me'moriy yondashuvdan kelib chiqib rivojlantirishga intilgan me'mor Kuma Kengo hamda tabiatan boy, mebelsozlik an'analari rivojlangan, sokin va qulay muhitga ega Higashikawa shahri o'zaro hamkorlikda yangi turmush madaniyatini yaratish va taklif qilish yo'lida birlashmoqda.

Maqsad:

Hokkaydodagi Asahikava mebelining asosiy ishlab chiqarish hududi bo'lgan Higashikava shaharchasi, kelajak avlodimiz bo'lgan yoshlar uchun yangi turmush tarzi bo'yicha takliflar taqdim etishga xizmat qiladigan "KAGU" dizaynlarini qidirmoqda.

KAGU - bu inson va dunyo o'rtasidagi bog'liqlikni yaratadigan umumiy atama bo'lib, an'anaviy mebel tushunchasining kengaytmasi hisoblanadi. Biz kundalik hayotimizda turli xil buyumlardan foydalanamiz, ammo ularning qanday yaratilgani va unda nima ishlatilganligi, qanday sharoitlarda qo'llanib kelganini ko'rish har doim ham oson emas.

Shu sababli, buyumlarni ehtiyotsiz ishlatish, qadrlamaslik, jarayonni qisqartirishga urinib natijani shoshiltirish, vaqt ajratib chuqur o'ylab ko'rmaslik kabi turmush tarzi jamiyatda sezilarli nomutanosibliklar paydo qilayotganini anglab yetdik.

KAGU dizayn tanlovi ko‘p imkoniyatlarga ega yoshlarning g‘oyalarining shakllanib, uzoq vaqt qo‘llanilishi hamda hayotni bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun imkoniyat bo‘ladi degan umiddaman.

Tanlov mavzusi:

Mavzu: "Sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlovchi mebel jihoz"

- Taqdim etiladigan asarlar ushbu tanlov nizomida belgilangan talablar, shuningdek amaldagi qonun-qoidalar asosida, faqatgina nomzodning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan dizayn bo‘lishi shart.
- Asarlar nomzodning o‘ziga tegishli bo‘lgan **original** ijodiy ishlari bo‘lib, bitiruv (yoki yakuniy) ko‘rgazmasidan tashqari **hech qayerda e‘lon qilinmagan** bo‘lishi talab etiladi.

KAGU "Kuma Kengo & Higashikava shahri" dizayn tanlovi hakamlar hay'ati raisining xabari

Janob Kuma Kengodan

Yaponiyada eng sog‘lom shaharcha barpo etishni maqsad qilgan Higashikawa shahri, sog‘liqni mustahkamlash bo‘yicha yuqori darajadagi tashabbuslari bilan ajralib turadi. Rasmiy hamkor korxonalar tomonidan yuborilgan trenerlarning doimiy faoliyati orqali aholining salomatligini qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, sog‘liq masalasiga yuksak e‘tibor aynan Higashikava shahriga xosdir. Eng asosiysi, boy suv manbalari va keng tabiiy hududlarga ega bo‘lgan muhitning o‘zi aholining sog‘lom turmush tarzini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shu bois, Higashikava ruhiga mos ravishda sog‘liqni qo‘llab-quvvatlovchi, har kim foydalanishi mumkin bo‘lgan sog‘lomlashtiruvchi mebellar, sog‘liqning mohiyati haqida o‘ylashga undaydigan mebellar, inson salomatligi hamda yer sayyorasi salomatligini ifodalovchi mebellar konsepsiyasini taklif etishingiz so‘raladi. Keng qamrovli va turli nuqtai nazarlarni o‘zida mujassam etgan holda, "sog‘lom mebel" tushunchasiga yangi yondashuvlarni ishlab chiqishingiz kutiladi.

"Kengo Kuma & Higashikava shahri" KAGU Dizayn tanlovi Ijroiya qo‘mitasi raisi

Kuma Kengo

Muvofiqlik:

Yaponiyada yoki xorijda bo‘lishidan qat‘i nazar, ushbu tanlovga arizani topshirgan vaqtda **30 yoshdan kichik**, turli **ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar** ishtirok etishi mumkin.

Guruh bo'lib qatnashishga ham ruxsat beriladi. Biroq, guruh shaklida ariza topshirilganda, **guruhning barcha a'zolari ishtirok etish shartlariga to'liq javob berishi** zarur.

Taqdim etiladigan asarlar soni:

1 ta asar (Individual yoki guruh bilan bo'lishidan qat'iy nazar)

Bitta ishtirokchi bitta ariza topshirishi mumkin. Shuningdek, guruh ishtirokida bitta ariza qabul qilinadi. Bir ishtirokchiga bir vaqtning o'zida ham individual ham guruh bo'lib ariza topshirishi qat'iyman etiladi. Bitta shaxs yoki guruhning bir nechta arizalari qabul qilinmaydi.

Tanlov to'lovi:

Tanlovda ishtirok etish **bepul**.

Ishning taqdimoti:

Sarlavha, dizaynning asosiy g'oyasi, mazmuni, shuningdek, ishning eskizi, chizmasi, kompyuter modeli yoki namunaviy fotosurati A3 formatidagi bir varaqda (bir tomonlama, landshaft yo'nalishi) mos kelishi kerak. PDF formatda bo'lishi kerak. Asarni berilishi faqat ingliz yoki yapon tilidan foydalanishga ruxsat etiladi.

Ma'lumot uchun:

Quyidagi elektron manzilga to'liq ism-sharifingiz va siz bilan bog'lanish uchun mumkin bo'lgan telefon raqamingiz, ma'lumotingizni yuboring. Qo'mita siz bilan tez fursatda bog'lanadi.

Elektron manzil: official@kagu-higashikawa.jp.

Ariza topshirish muddati:

01.12.2025 y. (du.) - 14.01.2026yil (soat 12:00, Yaponiya vaqti bilan)

◆ Tanlovda ishtirok etish uchun oldindan ro'yxatdan o'tishingiz lozim. Belgilangan muddatgacha ro'yxatdan o'tmasangiz tanlovda ishtirok eta olmaysiz.

◆ Ro'yxatdan o'tish tanlovning rasmiy internet sayti orqali amalga oshirilishi kerak. Rasmiy saytda berilgan ariza shakli to'ldirilib, jo'natish tartibi bilan amalga oshiring, Ariza shakli noto'g'ri to'ldirilgan yoki berilgan talablarga javob bermasa, ariza qabul qilinmaydi.

① Tanlov uchun asarni jo'natish [PDF shaklida]

• Sarlavha, dizaynning asosiy g'oyasi, shuningdek, asarning eskizi, chizmasi, kompyuter modeli yoki namunaviy fotosurati bitta A3 o'lchamdagi (bir tomonlama, gorizontal(albom) shaklda) bo'lishi kerak. Ishlatilgan shriftning minimal hajmi 10 bo'lishi kerak.

- Ro'yxatdan o'tganda jo'natilgan raqamni asarning o'ng tomonning pastki qismida yozing.
 - Ma'lumotlarni faqat ingliz yoki yapon tilida kiritish kerak.
 - Asarda ishtirokchini ifodalovchi iboralar, belgilar ishlatilmasligi lozim.
 - A3 o'lchamdagi asarni PDF shaklida yuboring.
 - Taqdim etilgan asar ma'lumot hajmi 3MB dan kam bo'lishi kerak.
- ② Ariza beruvchining (guruh bo'lsa uning barcha a'zolari) turli ta'lim muassasalarida ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat [PDF, jpg yoki GIFshaklida]
- Talabalik guvohnomasi yoki Oliy ta'lim muassasasida o'qishga kirganni tasdiqlovchi hujjatlarni PDF, jpg yoki GIF shaklida jo'nating.
 - Har bir fayl hajmini 1MB dan kam bo'lishi kerak.

Ishni topshirish bilan bog'liq ehtiyot choralari

- Oldindan ro'yxatdan o'tish paytidagi elektron pochta manzili uchun kotibiyatdan elektron pochta xabarlarini oladigan domendan foydalaning.

Tavsiya etilgan elektron manzil domeni:

Kotibiyat tomonidan qabul qilinmaydigan elektron manzil domenlar: **@mail.ru, @bk.ru, @list.ru, @inbox.ru]**

- Oldindan ro'yxatdan o'tish tugagach, bu haqda qatnashuvchining elektron pochta manziliga yuboriladi. Bu haqda ma'lumot olmaganlar electron pochta spam qutisi va ro'yxatdan o'tish haqidagi ma'lumotnomani tekshiring.

Asarni jo'natish muddati tugagandan so'ng, topshirilgan asarni o'zgartirish yoki qayta ko'rib chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

- Asarni yaratishda sarflangan xarajatlar uchun ishtirokchi zimmasida bo'ladi.
- Uchinchi shaxsning huquqlarini buzish xavfi mavjud bo'lsa, ruxsatnoma olinishi lozim.
- Taqdim etilgan asarda mualliflik huquqi kabi boshqalarning huquqlari buzilgan deb topilsa, ariza va mukofot bekor qilinadi. Taqdim etilgan ish bo'yicha huquqlarning buzilishi yoki zararni qoplash to'g'risidagi da'volar uchun uchinchi shaxs tomonidan sudga da'vo yoki e'tiroz bo'lishi ehtimoldan yiroq bo'lmagan taqdirda, ariza beruvchi uni hal qilish uchun javobgar bo'ladi, tashkilotchi va homiy kompaniyalar esa javobgarlikni olmaydi.
- Taqdim etilgan ish avval e'lon qilingan dizaynga o'xshashligi aniqlansa yoki u boshqalarning huquqlarini buzgan deb topilsa, ariza va mukofot bekor qilinadi. Bundan tashqari, tashkilotchi uchinchi shaxs huquqlarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan har qanday muammo uchun javobgar bo'lmaydi.

Asarlarni baholash bosqichi:

- 2026-yil fevral oyi o'rtalarida hakamlar hay'ati tomonidan 10 ta asar tanlab olinadi.
- G'olib deb topilgan asar ishtirokchiga xabar qilinadi va rasmiy veb-saytda e'lon qilinadi.

- Barcha g'oliblar shu 10 ta tanlab olingana asar orasidan aniqlanadi.
- G'olib deb topilgan asar muallifi ish kotibiyat tomonidan belgilangan sanaga qadar quyidagilarni taqdim etishlari kerak bo'ladi *Tafsilotlar g'olibga alohida e'lon qilinadi.
- Taqdimot, matni bilan;
- Taqdim etilgan dizaynning 1/5 dan 1/1 gacha bo'lgan o'lchovli shaklda bo'lishi kerak. (material tanlash erkin, taqdim etilgan dizayn modellari qaytarib berilmaydi)
- Yakuniy baholash (har bir mukofotga loyiq asarni tanlashda) taqdim etilgan asarlar va taqdimot videolari asosida muhokama qilinganidan keyin aniqlanadi.
- G'olib asar mualliflari Hokkaydoning Higashikava shahriga taqdirlash marosimiga tashrif buyurishlari lozim (Marosim, **2026-yil 22-martda rejalashtirilgan**).
- Tanlov varaqasi noto'g'ri to'ldirilgan yoki hujjatlarda kamchilik kuzatilsa sovrin bekor qilinishi mumkin.
- Asarni baholash mezonlari, baholash standartlari va shu kabi savollarga javob berilmaydi.

G'oliblarning taqdirlash marosimi sanasi va joyi

2026-yil 22-mart (yakshanba) Hokkaydoning Higashikava shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Sovrinlar va pul mukofotlari:

- Eng yuqori mukofot (Kengo Kuma va Higashikava mukofot, 1ta) 500ming yen pul mukofoti hamda asar mahsulot sifatida ishlab chiqarish
- Ikkinchi g'olib mukofot (SOLIZE mukofoti , 1ta asar uchun) 200 ming yen
- Yaxshi asar mukofoti (2ta asar uchun): 100 ming yen
- Rag'batlantiruvchi mukofot (6 ta asar uchun)
- Maxsus mukofot (Higashikawa Mokko me'morlar uyushmasi mukofoti 1ta: Yuqoridagi mukofotlangan asarlar orasidan alohida tanlanadi), asar mahsulotlashtiriladi

*G'oliblar yakuniy namoyish va taqdirlash marosimida ishtirok etishlari so'raladi.

*Chet ellik ishtirokchilar Higashikavaga kelishi uchun chetga chiqish pasporti bo'lishi kerak. Tanlovga ariza topshirish va qatnashish orasida muddat juda qisqa bo'lgani uchun oldindan tayyorgarlik ko'rishingiz so'raladi.

*Higashikava shahriga kelgunga qadar sarflangan transport xarajatlari (xususan, aeroportdan yashash joyiga borib-kelish transport xarajatlari) va turar joy xarajatlari Ijroiya qo'mitasi tomonidan qoplanadi. Biroq, guruh bo'lib ariza topshirilganda faqat ikkita kishigina taklif qilinishi mumkin.

Eng yaxshi mukofot (Kuma Kengo va Higashikava mukofoti) va Higashikava Yog‘ochsozlik Uyushmasi mukofotiga sazovor bo‘lgan asarlar bo‘yicha, mahsulot sifatida ishlab chiqarishni amalga oshirish maqsadida, ijroiya qo‘mitasi va tegishli ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan maslahatlar olib boriladi.

Mahsulotlashtirishning amalga oshirilishi yoki amalga oshirilmasligi texnik va iqtisodiy omillar, hamda mukofot sohibi bilan olib boriladigan muzokaralar natijasiga qarab yakuniy tarzda belgilab olinadi. Mahsulotlashtirish jarayonidagi uchrashuvlar va kelishuvlar uchun mukofot sohibi Higashikawa shahriga tashrif buyurishi lozim bo‘lgan taqdirda, shahar ichidagi yog‘ochsozlik korxonalari bilan uchrashuvlar, ishlab chiqarish jarayonlarini ko‘rish va tajriba qilish imkoniyatlari taqdim etiladi. Ushbu tashrif bilan bog‘liq yashash joyiga eng yaqin aeroportdan borib–kelish aviachipta xarajatlari, Higashikawa shahridagi mehmonxona xarajatlari, faqat bir marotaba, ijroiya qo‘mitasi tomonidan qoplanadi.

Tanlov hakamlari:

- **Hakamlar hay’ati raisi:** Kengo Kuma (arxitektor, Tokio universiteti faxriy professori)

- **Hakamlar:**

Eisuke Tachikawa (dizayn strateg, evolyutsion mutafakkir, NOSIGNER vakili)

Tokoro Asao (rassom)

Xiroshi Nakamura (arxitektor, NAP Arxitektura dizayn byurosi)

Masahiro Harada (arxitektor, Shibaura texnologiya instituti professori)

Katsuhiko Hibino (rassom, Tokio san’at universiteti professori)

Fujivara Teppei Fujivara (me’mor, Yokohama milliy universiteti dotsenti)

Oda Noritsugu (O‘rindiqlik tadqiqotchisi, Higashikawa dizayn maslahatchisi)

Higashikawa Mokko me’morlar yushmasi maxsus mukofoti hay’ati:

Higashikawa Yog‘ochsozlar Uyushmasi (Higashikawa shahri ichidagi yog‘och va mebel bilan shug‘ullanuvchi korxonalar birlashmasi)

Huquqiy masalalar:

- Taqdim etilgan asarlar (jumladan, chizmalar) tashkilotchiga tegishli bo‘lib, ular qaytarilmaydi.
- Taqdim etilgan asarlarning barcha dizayn va mualliflik huquqi ishtirokchiga tegishlidir.
- Asar tijorati bo‘yicha g‘olib bilan alohida huquqiy jihatdan muhokama qilinadi.

- Tashkilotchi asarni ko'rgazmaga qo'yish, uni ommaviy axborot vositalari va jurnallarda chop ettirish huquqiga ega.

- Tashkilotchi ishtirokchi taqdim etilgan asarni uni ogohlantirmasdan ko'rgazmaga qo'yishi, qilish, taqdimot o'tkazishi, tahrirlash, o'zgartirish kiritish, nusxa ko'chirish, tarqatish kabi erkin foydalanish huquqiga ega.

- Tanlov tashkilotchisi g'olib deb topilgan ishni tijoratlashtirish bo'yicha muzokaralar ustuvorligini belgilashga haqli.

Tashkilotchi yoki homiy kompaniya taqdim etilgan ishni ommaga taqdim qilish kabilarda erkin foydalanish mumkin va bu uchun to'lov olinmaydi. Tashkilotchi yutuqli ishni sotishdada imtiyozli muzokaralar olib borish huquqiga ega.

Tashkilotchilar tomonidan majburiyatlardan ozod qilish bo'yicha:

- Tashkilotchi ishtirokchining taqdim etilgan arizalari va asarlari bilan bog'liq zararni qoplash uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi. Tashkilotchining beparvoligi yoki qo'pol xatti-harakat qilsa bundan mustasno.

- Ushbu tanlov jadvali va mazmuni oldindan ogohlantirmasdan o'zgartirilishi mumkin.

Tanlov tashkilotchilari:

"Kengo Kuma & Higashikawa shahri" KAGU Dizayn tanlovi Ijroiya qo'mitasi

Higashikawa shahri, Higashikawa savdo-sanoat palatasi, Higashikawa sayyohlik uyushmasi, Higashikawa qishloq xo'jaligi uyushmasi, Higashikawa qurilish sanoat uyushmasi, Higashikawa o'rmon xo'jaligi uyushmasi, Higashikawa targ'ibot jamoat korporatsiyasi, Asahikawa mebel sanoati uyushmasi, Higashikawa shahar kengashi, Higashikawa shahar ta'lim boshqarmasi, Higashikawa Mokko me'morlar uyushmasi

Ijroiya qo'mitasi kotibiyati: Higashikawa madaniyat va almashinuv bo'limi

☎: +81 166-82-2111

✉: official@kagu-higashikawa.jp